



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2024- yil 1- iyun holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) **19 383** tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar **16 096** ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining kamayishi **95,1** foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **93,8** foiz)ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda **301** taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar **242** taga, oilaviy korxonalar **100** taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	475	9,4 %	Arnasoy t	125	16,8 %
G'allaorol t.	241	9,8 %	Paxtakor t.	117	11,3 %
Sharof Rashidov t.	212	11,8 %	Yangiobod t.	93	17,9 %
Zomin t.	196	11,6 %	Mirzacho'l t.	73	9,9 %
Baxmal t.	177	12,1 %	Zafarobod t.	71	11,1 %
Zarbdor t.	154	14,5 %	Do'stlik t.	60	7,4 %
Forish t.	147	10,5 %			


2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida





2024- yil 1- iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **19 383** tani tashkil etib, 2023- yilning mos davriga (**20 371** ta) nisbatan **988** taga quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli kamayganligi bilan ifodalash mumkin: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3 497** tadan **3 239** taga (kamayish **258** ta), sanoat – **2 751** tadan **2 524** taga (kamayish **227** ta), qurilish – **1 568** tadan **1 346** taga (kamayish **222** ta).

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


Jizzax sh.	5 029	Paxtakor t.	1 038
Sharof Rashidov t.	2 453	Do'stlik t.	807
G'allaorol t.	1 795	Arnasoy t.	742
Zomin t.	1 694	Mirzacho'1 t.	737
Baxmal t.	1 465	Zafarobod t.	641
Forish t.	1 402	Yangiobod t.	519
Zarbdor t.	1 061		

2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni **2 098** ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar **2 086** ta;
- yirik korxonalar **12** ta.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	462	10,8 %	Arnasoy t.	124	20,6 %
Sharof Rashidov t.	233	11,0 %	Paxtakor t.	114	13,3 %
G'allaorol t.	208	13,6 %	Yangiobod t.	90	21,5 %
Zomin t.	193	13,9 %	Mirzacho'l t.	72	12,3 %
Baxmal t.	176	14,7 %	Zafarobod t.	70	14,0 %
Zarbdor t.	151	17,3 %	Do'stlik t.	59	9,4 %
Forish t.	146	12,1 %			

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- iyun holatiga **16 186** taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,4** foizni tashkil etdi (**730** taga ko'paydi). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – **33,7** foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – **19,8** foiz, sanoat – **15,6** foiz, qurilish – **8,2** foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **7,5** foiz, tashish va saqlash – **2,3** foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – **1,6** foiz, axborot va aloqa – **1,4** foiz, boshqa turlari – **10,1** foiz.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	4 289	Paxtakor t.	856
Sharof Rashidov t.	2 119	Do'stlik t.	627
G'allaorol t.	1 524	Arnasoy t.	603
Zomin t.	1 392	Mirzacho'l t.	583
Forish t.	1 205	Zafarobod t.	500
Baxmal t.	1 196	Yangiobod t.	418
Zarbdor t.	874		

2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-may oylarida sanoat sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan **337** tadan **551** taga (ko'payish **214** taga) ko'paydi.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	460	10,8 %	Arnasoy t.	124	20,6 %
Sharof Rashidov t.	232	11,0 %	Paxtakor t.	113	13,3 %
G'allaorol t.	208	13,7 %	Yangiobod t.	90	21,5 %
Zomin t.	193	14,0 %	Mirzacho'l t.	72	12,4 %
Baxmal t.	173	14,6 %	Zafarobod t.	66	13,4 %
Zarbdor t.	150	17,3 %	Do'stlik t.	59	9,5 %
Forish t.	146	12,2 %			

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Shahar va tumanlar kesimida o'tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari sonining eng yuqori o'sish sur'ati Paxtakor (**104,3 foiz**) tumanida qayd etildi. Yangiobod, Baxmal va Zafarobod tumanlarida jami kichik biznes subyektlari sonining **50** foizidan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	4 255	Paxtakor t.	851
Sharof Rashidov t.	2 115	Do'stlik t.	624
G'allaorol t.	1 518	Arnasoy t.	603
Zomin t.	1 382	Mirzacho'l t.	580
Forish t.	1 200	Zafarobod t.	494
Baxmal t.	1 187	Yangiobod t.	418
Zarbdor t.	869		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2024- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Forish t.	578
Baxmal t.	373
Sharof Rashidov t.	352
G‘allaorol t.	335
Zomin t.	231
Mirzacho‘l t.	213
Zarbdor t.	212
Jizzax sh.	200
Arnasoy t.	189
Yangiobod t.	150
Do‘stlik t.	148
Zafarobod t.	136
Paxtakor t.	122



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	681
Sharof Rashidov t.	357
G'allaorol t.	284
Zomin t.	242
Zarbdor t.	157
Baxmal t.	148
Forish t.	132
Paxtakor t.	128
Do'stlik t.	96
Mirzacho'l t.	91
Zafarobod t.	81
Arnasoy t.	76
Yangiobod t.	51



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o'sish sur'ati **84,7** foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning **13,0** foiz ulushini tashkil etdi. Shundan **94,5** foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish **91,5** foiz), **3,2** foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish **80,8** foiz), **1,7** foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish **130,3** foiz) va **0,6** foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish **150,0** foiz) tashkil etgan.



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	535
Sharof Rashidov t.	187
Zomin t.	102
G'allaorol t.	99
Zarbdor t.	72
Paxtakor t.	71
Forish t.	58
Baxmal t.	58
Do'stlik t.	41
Arnasoy t.	35
Mirzacho'l t.	35
Zafarobod t.	30
Yangiobod t.	23



O'zbekistonda qurilish sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sohasining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- bino va inshootlar qurilishi yo'nalishi **49,9** foiz ulushni, o'sish sur'ati esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan **82,1** foizni tashkil qildi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi **27,6** foiz ulushni, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **89,8** foizni tashkil qildi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi **22,5** foiz ulushni va o'sish sur'ati **90,2** foizni tashkil qildi.


371

Fuqarolik
obyektlarini qurish

303

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari


672

Bino va
inshootlar qurish

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	1 552
Sharof Rashidov t.	740
Zomin t.	507
G'allaorol t.	506
Baxmal t.	399
Paxtakor t.	340
Forish t.	298
Zarbdor t.	242
Arnasoy t.	224
Do stlik t.	220
Zafarobod t.	177
Mirzacho'l t.	128
Yangiobod t.	117



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning **100,1** foizi yoki **5 442** tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi **63,7** foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati **94,6** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida **25,6** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **98,8** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida **10,7** foiz ulushni, o'sish sur'ati esa **93,8** foizni tashkil etdi.

585

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 395

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


3 470

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	388
Sharof Rashidov t.	196
G'allaorol t.	103
Zomin t.	102
Paxtakor t.	72
Baxmal t.	67
Zarbdor t.	67
Mirzacho'l t.	50
Do'stlik t.	47
Forish t.	46
Arnasoyt.	29
Zafarobod t.	25
Yangiobod t.	25



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan **104,7** foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'ahlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning **8,4** foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining **91,6** foiz ulushini tashkil etdi.

102

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 115


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	118
Paxtakor t.	19
Sharof Rashidov t.	18
Baxmal t.	16
G'allaorol t.	14
Zomin t.	11
Zarbdor t.	9
Arnasoy t.	8
Mirzacho'l t.	5
Yangiobod t.	5
Zafarobod t.	5
Mirzacho'l t.	5
Forish t.	4



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining **12,2** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **116,0** foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining **20,3** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **49,0** foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning **67,5** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **109,6** foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	167
Zomin t.	34
G'allaorol t.	32
Sharof Rashidov t.	23
Baxmal t.	15
Paxtakor t.	14
Zarbdor t.	12
Mirzacho'l t.	10
Forish t.	10
Yangiobod t.	7
Do'stlik t.	7
Zafarobod t.	5
Arnasoy t.	4



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi **340** ta yoki **1,8** foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

92,4 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **104,0** foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni **5,3** foizni tashkil etib, o'sish sur'ati **105,9** foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning **2,4** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **100,0** foizni tashkil etdi;



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	108
Sharof Rashidov t.	72
Zomin t.	19
Paxtakor t.	17
G'allaorol t.	12
Zarbdor t.	11
Arnasoy t.	9
Do'stlik t.	9
Baxmal t.	8
Zafarobod t.	7
Mirzacho'l t.	7
Forish t.	4
Yangiobod t.	3



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining **1,9** foiz ulushini tashkil etdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati **82,2** foizni tashkil etdi;


ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati **119,1** foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishining o'sish sur'ati **80,0** foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining o'sish sur'ati **100,0** foizni tashkil etdi;

suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni mavjud emas.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**
2024- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	351	Arnasoy t.	113
Sharof Rashidov t.	176	Yangiobod t.	74
Baxmal t.	157	Mirzacho'l t.	68
Zomin t.	145	Paxtakor t.	58
Forish t.	141	Do'stlik t.	57
G'allaorol t.	132	Zafarobod t.	42
Zarbdor t.	126		

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan **16 186** ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining **11 817** tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich qurilishda **84,2** foiz, axborot va aloqada **84,1** foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **76,9** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	3 442	Do'stlik t.	507
Sharof Rashidov t.	1 723	Arnasoy t.	475
Baxmal t.	994	Paxtakor t.	460
Zomin t.	927	Mirzacho'l t.	444
G'allaorol t.	883	Zafarobod t.	305
Forish t.	774	Yangiobod t.	245
Zarbdor t.	638		

2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2024- yil yanvar-may oylarida sanoatda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2023- yilning mos davriga nisbatan **14** taga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **2** taga kamaygan.


Hududlar kesimida

G'allaorol t.	53	Arnasoy t.	5
Paxtakor t.	43	Sharof Rashidov t.	5
Zafarobod t.	24	Zomin t.	5
Jizzax sh.	15	Forish t.	2
Zarbdor t.	9	Baxmal t.	1
Yangiobod t.	8	Mirzacho'l t.	1

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan **11,3** foizga kamaydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan ko'payishiga sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (**107,1** foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (**91,0** foiz), savdo (**84,3** foiz), tumanlar kesimida esa, Paxtakor (**124,1** foiz), Zafarobod (**90,8** foiz) va Forish (**88,1** foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.


Hududlar kesimida

G'allaorol t.	448	Zafarobod t.	119
Jizzax sh.	414	Baxmal t.	116
Forish t.	369	Zarbdor t.	103
Zomin t.	243	Mirzacho'l t.	102
Paxtakor t.	232	Arnasoy t.	99
Yangiobod t.	135	Do'stlik t.	61
Sharof Rashidov t.	129		


2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	95	Yangiobod t.	8
Sharof Rashidov t.	51	Arnasoy t.	5
Zomin t.	43	Zafarobod t.	4
G'allaorol t.	23	Mirzacho'l t.	3
Baxmal t.	18	Do'stlik t.	2
Zarbdor t.	14	Forish t.	1
Paxtakor t.	13		

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra 2020- yilning mos davriga nisbatan **653** taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda **159** tadan **464** taga (ko'payish **305** taga), sanoatda **370** tadan **540** taga (ko'payish **170** taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	381	Baxmal t.	61
Sharof Rashidov t.	247	Do'stlik t.	53
Zomin t.	201	Forish t.	34
G'allaorol t.	173	Mirzacho'l t.	30
Paxtakor t.	159	Yangiobod t.	21
Zarbdor t.	106	Arnasoy t.	18
Zafarobod t.	62		

2024- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni **5,8** foizga kamaydi.

Yetakchi o‘rinni **69** ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Turkiya egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining **38,5** foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi **25,7** foiz), Rossiya Federatsiyasi (ulushi **22,3** foiz) va Angliya (ulushi **7,3** foiz) davlatlari ham yetakchi hisoblanadi.

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	65	Do‘stlik t.	6
Forish t.	21	Baxmal t.	6
Sharof Rashidov t.	21	Arnasoy t.	6
Zomin t.	15	Yangiobod t.	5
G‘allaorol t.	11	Zarbdor t.	3
Paxtakor t.	10	Mirzacho‘l t.	2
Zafarobod t.	8		

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan **97** tasi qo'shma korxonalar, **82** tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

82	Jizzax viloyati	97
33	Jizzax shahri	32
6	Forish tumani	15
9	Sh.Rashidov tumani	12
6	Zomin tumani	9
2	Paxtakor tumani	8
6	G'allaorol tumani	5
2	Baxmal tumani	4
5	Zafarobod tumani	3
2	Yangiobod tumani	3
4	Arnasoy tumani	2
4	Do'stlik tumani	2
1	Zarbdor tumani	2
2	Mirzacho'l tumani	0

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish
boʻlimi
Tel.: (72) 221-51-24